

**JONATHAN SVIFTNING «GULIVERNING SAYOHATLARI»
ASARIDAGI LEKSIK O'ZGARISHLAR**

Inog'omjonova Robiya Rustamjon qizi

Toshkent Davlat Transport Universiteti Talabasi

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada tarjima jarayonida sodir bo'ladigan o'zgarishlardan biri bo'lmish, lexic o'zgarish to'g'risida Jonathan Sviftning «Guliverning sayohatlari» asarining tahlili davomida batafsil to'xtalib o'tilgan. Quyida lexic o'zgarish turiga oid berilgan ayrim namunalar bu o'zgarish turini yanada yaxshiroq tushunish imkonini yaratadi.*

KALIT SO'ZLAR: *asar, tarjima, transformatsiya, tur, tahlil, leksika, lexic transformatsiya, muallif, metod, tushuncha, o'zgarish.*

KIRISH : Jonatan Svift 1667-yil 30-noyabrda Irlandiyaning Dublin shahrida, o'rtahol oilada dunyoga kelgan. 1745-yili 19-oktabrda 77 yoshida Dublinda vafot etgan. U ingliz-irlandiya hajviy asarlar yozuvchisi, jamoatchi, faylasuf, shoir, jamoat arbobi sifatida tanilgan. Tirishqoq va mohir Jonatan Sviftning ko'pgina asarlari Irlandiyaliklar tarafidan hurmat va ehtirom bilan qabul qilingan. ayniqsa, uning "Guliverning sayohatlari" nomli mashhur fantastik asari keng ommaga tezda tarqaldi. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida sevib o'qiladigan mazkur asar juda ko'p marta ekranlashtirilgan. Guliverning sayohatlari — Jonathan Swift tomonidan yozilgan asar. Bu roman satiriko-fantastik janrida yozilgan. Asarning to'liq nomi „Lemyuel Guliverning jahondagi bir necha olis mamlakatlarga awalo jarroh, keyinchalik esa bir necha kemalar kapitani sifatida qilgan sayohatlari“ Roman 1726-1727 yillarda, Londonda birinchi marta nashr qilingan. Asar to'rt qismdan iborat.

ADABIYOTLAR TARIXI VA METODOLOGIYA

O'zgartirish jarayonida dastlabki birliklar sifatida qaraladigan til birliklari xarakteriga qarab tarjima transformatsiyalarini lexic, grammatik va lexic-

grammatik transformatsiyalarga bo'lish mumkin. Ularda o'zgartirish jarayonlari bir vaqtning o'zida asl nusxaning leksik va grammatik birliklarini qamrab oladi, ya'ni leksik birliklardan grammatik birliklarga o'tadi yoki aksincha. Tarjima jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan leksik transformatsiyalarga quyidagilar kiradi: transkripsiya va transliteratsiya (bir alifbo harflarini boshqa alifbo harflari bilan yozish), kalkalash (boshqa tildagi so'zni aynan tarjima qilib yoki unga taqlidan So'z yaratish) va leksik-semantik o'zgarishlar: konkretlashtirish, generalizatsiya va modulatsiya. Tahlil qilinayotgan asar to'g'risida ham, leksik transformatsiya turi haqida ham aniq ma'lumotga ega bo'ldik. [1,4] Keling yuqoridagi asar tahliliga o'tsak : My father had a small estate in Nottinghamshire; I was the third of five sons. He sent me to Emanuel College in Cambridge, at fourteen years old, where I resided three years, and applied myself close to my studies... ingliz tilida shunday misra berilgan, buning tarjimasi esa, Men Nottingempshirda tug'ilganman, u yerda otamning uncha katta bo'lmagan mulki bor edi. Yoshim o'n to'rtga to'lganda otam meni Kembrij shahridagi Imanyuel kollejiga o'qishga yubordi. U yerda uch yil bilimlarni zo'r hafsala bilan o'rgandim. Tarjimasi esa quyidagi misralar orqali izohlangan. Ushbu parchada esa leksik transformatsiya turiga mavjud Transliteratsiya izohlangan. Nottinghamshire, Emanuel College, Cambridge so'zlari tarjima jarayonida o'zbek tiliga quydagicha Nottingemshir, Imanyuel, Kembrij kollej moslashtirilgan orqali izohlangan. Bundan tashqari keyingi parchaga e'tiborimizni qaratsak, But the charge of maintaining me, although I had a very scanty allowance, being too great for a narrow fortune, I was bound apprentice to Mr. James Bates, an eminent surgeon in London, with whom I continued 4 years ; Tarjimasi : Biroq, kollejda o'qishim uchun mablag' yetkazib berishga otamning qudrati yetmay qoldi, shuning uchun meni u yerdan olib, Londondagi mashhur vrach Jems Betsga shogirdlikka berdi, undan to'rt yil ta'lim oldim. Tahlil : Ingliz tilidagi **a / an** artikllari o'zbek tiliga tarjima qilinmagan, chunki o'zbek tilida bunday qo'shimchalar mavjud emas. Keyingi parchaga qaraydigan bo'lsak: I took part of a small house in the Old-Jury; and being advised to alter my condition, I married Mistress Mary Burton, second daughter to Mr.

Edmund Burton, hosier, in Newgate Street, with whom I received four hundred pounds for a portion. (16,17 betlar)Tarjimada : Men Old-Juridagi uncha katta bo‘lmagan uyning bir qismini ijaraga oldim, Nyugetstritda yashovchi paypoqfurush mister Edmond Bertoning qizi miss Meri Bertonga uylanib, to‘rt yuz funt sep oldim. Tahlili : buniyerdada ham transliteratsiyadan foydalanilgan : Mr.Edmund Burton , Newgate Street — Edmond Berton , Nyugetstrit ga o'zgarishi kuzatilyapti. Nyugetstrit bu yerda ekvivalentsiz leksik birlik hisoblanib , 3-ya'ni leksik moslikka ega bo'lmagan birlik turiga mansub. (L.S.Barxudarov nazaryasi.).[2,3]. Keyingi parcha : I attempted to rise, but was not able to stir; for, as I happened to lie on my back, I found my arms and legs were strongly fastened on each side to the ground; and my hair, which was long and thick, tied down in the same manner. I likewise felt several slender ligatures across my body, from my arm-pits to my thighs.(18 – bet). Tarjimasi : Men o'rnimdan turmoqchi bo‘ldim, biroq qimirlay olmadim. Qo‘l-oyoqlarim yerga mahkam chirmab tashlanibdi; o‘zim chalqancha yotardim. Uzun va qalin sochlarim ham yerga bog'lab tashlangan edi. Ayni paytda butun gavdam — qo‘ltig‘imdan sonimgacha ingichka chilvirlar bilan tortib bog‘langanligini sezdim. Tahlil esa quyidagicha : Gapda bir uyaga mansub so'zlarning ketma ket ishlatilishi kuzatilgan . Bu ham leksik transformatsiya turiga kiradi. Keyingi parchaga e'tibotimizni qaratsak : I then made another sign that I wanted drink. They found by my eating that a small quantity would not suffice me; and being a most ingenious people, they slung up, with great dexterity, one of their largest hogsheads, then rolled it towards my hand, and **beat out** the top; **I drank it off** at a draught, which I might well do, for it did not hold half a pint, and tasted like a small wine of Burgundy, but much more delicious. (19-bet). Tarjimada esa : Qornim to‘ygach, biror narsa ichgim kelganligiga ishora qildim. Bular juda ham ziyrak xalq ekan. Yegan ovqatimga qarab, meni oz narsa bilan qondirib bo‘lmasligini bilishib, odatdan tashqari ephillik bilan arqon yordamida bochkalardan eng kattasini ustimga tortib chiqarishdi, qo‘linga yumalatib olib borishdi va og‘ zini ochishdi. Bochkada chorak litrcha vino bor edi, uni bir ko‘tarishda ichib yubordim, u burgund vinosiga

o'xshasa-da, mazasi ancha yaxshi edi. Tahlili : bu yerda qo'shma birliklar ishlatilgan. De'mak so'z o'yini bilan bog'liq bo'lgan bu o'zgarish turini ham leksik transformatsiya turiga olamiz. Keyingi parchaga qaraydigan bo'lsak : For the queen, whom I always attended, never went further when she accompanied the king in his progresses, and there stayed till his majesty returned from viewing his frontiers. (59 – bet). Tarjimasi : Imperator **paysalga solmay** darhol ijozat berdi, lekin aholiga ham, ularning uylariga ham hech qanday ziyon-zahmat yetkazmasligimni qattiq tayinladi. Bu yerda "paysalga solmay " so'zining tarjima jarayonida tarjimon tomonidan qo'shilishi lexic transformationning logical development turini yuzaga keltirgan . So'nggi parcha : There were several of his priests and lawyers present (as I conjectured by their habits), who were commanded to address themselves to me, and I spoke to them in as many languages as I had the least smattering of, which were **High and Low Dutch, Latin, French, Spanish, Italian, and Lingua Franca;** but all to no purpose. Tarjimada : Shunda u arkoni davlat ichidagi ruhoniylar va yuristlarga (kiyimlaridan shunday bo'lishsa kerak deb o'yladim) men bilan muloqotda bo'lishga amr qildi. Men o'z navbatida, ular bilan o'zim bilgan hamma tillarda: nemischa, gollandcha, lotincha, fransuzcha, ispancha, italyanacha gaplashdim, biroq bu urinishlar hech qanday natija bermadi. Tahlili esa : Bu yerda atoqli otlardan keng foydalanilgan.

XULOSA : Tahlildan kelib chiqib xulosa qilsak, matnni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish davomida o'zgarishlar, o'rin almashishlari, transformatsiyaga uchrashi , so'zlarning tushirilib qoldirilishom tabiiy holdir. Biz esa ushbu o'zgarish turlarining keng tarqalgan turlaridan biri bo'lmish lexic transformatsiya haqida so'z yuritdik. O'ylashimcha yuqoridagi keltirilgan misollar bu turdagi o'zgarishni yetarlicha tushunish imkonini beradi.

REFERENCES :

1. COMPARATIVE ANALYSIS OF FOREGROUNDING IN MIRMUXSIN'S NOVEL "MEMOR" AND K.MANSFIELDS "A CUP OF TEA". Academic research in educational sciences, 3 (Special Issue 2), 9-12.

2. Oybek Rustamovich Achilov (2022). COMPARATIVE STUDYING MODEL OF FOREGROUNDING IN UZBEK AND ENGLISH LITERARY TEXT. Academic research in educational sciences, 3 (10), 714-718.
3. Achilov, O. R. (2017). IMPROVING STUDENTS'CRITICAL THINKING THROUGH CREATIVE WRITING TASKS. In International Scientific and Practical Conference World science (Vol. 4, No. 4, pp. 19-23). ROST.
4. Achilov, Oybek Rustamovich, & Inog'Omjonova, Robiya Rustamjon Qizi (2023). THE ROLE OF LEXICAL TRANSFORMATION IN THE TRANSLATION PROCESS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (4), 288-294.